IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: JN68574353

YUNESKO ishlari bo‘yicha
O‘zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi

National Commission
of the Republic of Uzbekistan for UNESCO

O‘zbekiston, Toshkent, 100029, T.Shevchenko ko‘chasi 1-uy / 1, T.Shevchenko street, Tashkent, 100029, Uzbekistan
tel: (+998-91) 477-70-90 e-mail: info@unesco.uz e-xat: ncu@exat.uz

2025-yil 19-dekabr № 383/25

Vazirlik va idoralarga
(ro‘yxat bo‘yicha)

Ma’lumot uchun: **Tashqi ishlar vazirligi**

YUNESKO tashkiloti “Arab madaniyati uchun YUNESKO-Sharja mukofoti”ni e’lon qildi. Ushbu mukofot arab madaniyati va san’atini xalqaro miqyosda keng targ‘ib qilish hamda rivojlantirishga ulkan hissa qo‘shgan atoqli olim yoki olimlar guruhi, yoxud ilmiy muassasaga taqdim etiladi. Mukofot 60,000 AQSH dollari miqdoriga teng bo‘lib, ikki g‘olib o‘rtasida teng taqsimlanadi.

Ma’lumot uchun: 2025-yilgi “Arab madaniyati uchun YUNESKO-Sharja mukofoti” zamonaviy rassom Aya Tarek (Misr) hamda kinorejissyor Alvin Alidji Touré (Mali) arab madaniyatini dunyoga targ‘ib etishi borasidagi sadoqati uchun taqdirlangan. Tanlov shartlariga ko‘ra, nomzodlar Milliy komissiya kotibiyati tomonidan YUNESKOga tavsiya (nomzod tarjimayi holi va yutuqlari, qilgan ishlari ro‘yxati, nashrlar, mukofot maqsadlariga qo‘shgan hissasining ta’rifi, tavsiyanomalar) etiladi. Shundan so‘ng, YUNESKO tomonidan nomzodga tanlovda ishtirok etish bo‘yicha batafsil ma’lumot yuboriladi. Tanlov bo‘yicha batafsil ma’lumot quyidagi havolada mavjud: https://en.unesco.org/prizes/sharjah.

Mazkur mukofot uchun nomzodlar o‘z hujjatlarini onlayn tarzda YUNESKO platformasida yuklashi belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, nomzodlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar YUNESKOga joriy yilning 28-fevral kuniga qadar taqdim etilishi lozim.

Shu munosabat bilan, “Arab madaniyati uchun YUNESKO-Sharja mukofoti”ning 21-tanlovida ishtirok etish uchun O‘zbekiston Respublikasida arab madaniyatini rivojlantirishga hissa qo‘shgan munosib shaxs yoki muassasa to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Milliy komissiya kotibiyatiga 2026-yilning 10-fevral kuniga qadar taqdim etishda amaliy yordam berishingiz so‘raladi.

Ilova:_v.

Bosh kotib **O. Gaipov**

Ijrochi: D.Kurbanova
Tel.: 97 749 34 70

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
K/R: 4/1-11786 2025-yil 19 -dekabr

Vazirlik va idoralar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi;
2. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi;
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo’yicha qo‘mitasi;
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Islom sivilizatsiyasi markazi;
5. O‘zbekiston Xalqaro islomshunoslik akademiyasi.